

FAN:

AT

mavzu

Axborot va ma'lumotlarning ta'rifi va xossalari.
Axborotning o'lchov birliklari. Ma'lumotlarni
kodlash. Sanoq sistemalari ustida amallar



Raxmankulova Barna
Oktamxanova

«Axborot texnologiyalari»
kafedrasi dotsenti



Reja:

- 1. Axborot tusunchasi va uning turlari, xossalari, o'lchov birliklari**
- 2. Axborotlarni kodlash, sanoq sistemalari ustida amallar**

Tayanch iboralar

Informatika, axborot, kompyuter, axborotni uzatish, axborotni qayta ishlash jarayoni, axborot tizimi, tizim, kompyuter texnikasi, texnologiya, sanoq sistemalari, axborotlarni kodlash, axborot industriyasi, kibernetika, axborotlashgan jamiyat, axborot texnologiyalari, texnik vositalar, dasturiy ta'minot, algoritmik qism, apparat ta'minot, konfiguratsiya, interfeys, telekommunikatsiya, AKT, axborotlashtirish, kommunikatsiya.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Абдулаев З.С., Мирзаев С.С., Шодмонова Г., Шамсиддинов Н.Б. “Информатика ва ахборот технологиялари” Ўқув қўлланма. Ташкент 2012. 99-133, 212-229-бетлар.
2. Z.C.Abdullaev, M.Yusupov, B.O.Raxmankulova, Sh.Aynakulov “Amaliy axborot texnologiyalari”, Tashkent. 2019. 84-122, 192-209-betlar.
3. Raxmankulova B.O., Ziyaeva Sh.K., Kubyashev K.E. “Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish” O’quv qo’llanma. Toshkent 2020.

Axborot nima?

Axborot - atrof-muhit obyektlari va xodisalari, ularning o'lchamlari, xususiyatlari va xolatlari to'g'risidagi ma'lumotlardir.

1960-yillarda Fransiyada “Informatika” atamasi yuzaga kelgan bo’lib, axborot *informatio* so’zidan olingan bo’lib, tushuntirish, biror narsani bayon qilish yoki biror narsa yoki hodisa haqidagi ma'lumot ma'nosini anglatadi.

Umuman, Axborot deganda atrof muhitdan, (tabiatdan yoki jamiyatdan) sezgi a'zolarimiz (ko'z, qulqoq, burun, og'iz, teri) orqali qabul qilib, anglab oladigan har qanday ma'lumotni tushunamiz.

Axborotning o'lchov birliklari va axborotlarni kodlash

Har qanday kattalikni o'lchash uchun mos etalon birliklar mavjud. Masalan, uzunlikni o'lchash uchun metr, massani o'lchash uchun - kilogramm, vaqtni hisoblash uchun soniya va boshqalar ishlataladi. Axborotlar ham har xil ko'lamga ega bo'lib, ularning o'lchov birligi mavjud. Axborotlarning eng kichik o'lchov birligi 1 bit deb olingan. 1 bit 1 yoki 0 ga teng bo'ladi. Axborotni o'lchashda signaling mavjudligi “1” bilan yoki yo'qligi “0” bilan ifodalanadi. Kompyuterda har bir belgi 8 bit hajmdagi joyni egallaydi. Axborotlarni o'lchash uchun hosilaviy o'lchov birliklar ham mavjud:
1 bayt = 8 bit;

$$\mathbf{1 \ kilobayt(kb) = 2^{10} \ bayt = 1 \ 024 \ bayt;}$$

$$\mathbf{1 \ megobayt(mb) = 2^{10} \ kb = 1024 \ kb = 2^{20} \ bayt = 1 \ 048 \ 576 \ bayt;}$$

$$\mathbf{1 \ gegobayt(gb) = 2^{10} \ mb = 1024 \ mb = 2^{30} \ bayt = 1 \ 073 \ 741 \ 824 \ bayt;}$$

$$\mathbf{1 \ terobayt(tb) = 2^{10} \ gb = 1024gb = 2^{40} \ bayt = 1 \ 099 \ 511 \ 627 \ 776 \ bayt;}$$

$$\mathbf{1 \ petobayt(pb) = 2^{10}tb = 1024tb = 2^{50} \ bayt = 1125899906842624 \ bayt;}$$

"Bit" so`zi "Binary digit" - "Ikkilik son" so'zlarini qisqartirish natijasida olingan bo`lib, ikkilik raqam, ya'ni faqat ikkita qiymatni oladigan son - 0 yoki 1 degan ma'noni bildiradi. Sakkizta bitlar ketma-ketligi yoki boshqacha qilib aytganda, sakkizta 0 va 1 ikkilik belgilar (masalan, 10001101) bayt deb ataladi. 1 bayt = 8 bit.

Kompyuter klaviaturasidagi har qanday belgi (katta yoki kichik harflar, raqamlar, belgilar, shu jumladan bo'sh joy belgisi) hajmi 1 baytni tashkil qiladi.

Endi biz matnning ma'lumot hajmini hisoblashimiz mumkin. Undagi belgilar sonini hisoblash kerak. Olingan qiymat baytlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar hajmi bo'ladi.

Masalan, hujjat 30 sahifadan iborat bo`lib, har bir sahifada har biri 70 belgidan iborat 50 satr, shu jumladan so'zlar orasidagi bo'shliqlar mavjud. U holda har bir sahifada $70 * 50 = 3500$ bayt ma'lumot, va butun hujjatda esa - $3500 * 30 = 105000$ bayt bo'ladi. Natijadan ko'rinish turibdiki, atigi 30 varaqni o'z ichiga olgan hujjat hajmi katta son bilan belgilanadi. **Gidromelioratsiya so'zida nechta bit bor?**

Axborotlarni himoyalash.


Axborotlarni himoyalash ularni **kodlash(shifrlash)** orqali amalga oshiriladi.

Axborotni ma'lum bir qonun-qoida asosida komyuterda qayta ifodalash shu axborotni **kodlash** deb ataladi.


Axborotni himoyalashning bir necha usullari mavjud bo'lib, ular *axborotdagi belgilarni boshqa belgilarga almashtirish, axborotdagi belgilarni sanoq sistemalari orqali ifodalash va h.k.lar.*

Axborotlarni himoyalash


Axborotni kodlashga sodda misol:



Kodlangan axborotlarni asl holiga keltirish shu axborotni
deshifratsiyalash yoki **kodsizlantirish** deb ataladi.



Sanoq sistemasi haqida tushunchcha.



Sanoq sistemalari orasida bog'lanish

Sanoq sist.	B e l g i l a r															
16 lik	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F
10 lik	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
8 lik	0	1	2	3	4	5	6	7	10	11	12	13	14	15	16	17
2 lik	000	001	010	011	100	101	110	111	1000	1001	1010	1011	1100	1101	1110	1111

Biror N sonini ixtiyoriy asosli sanoq sistemasida quyidagicha yozish mumkin: $N = a_m a_{m-1} \dots a_1 a_0, a_1 \dots a_k$

$$N = a_m r^m + a_{m-1} r^{m-1} + \dots + a_1 r^1 + a_0 r^0 + a_{-1} r^{-1} + \dots + a_{-k} r^{-k} = \sum_{i=-k}^m a_i r^i$$

Bu yerda a_i lar 0 dan 9 gacha bo'lgan ixtiyoriy raqamlar,
 r – sanoq sistemasining asosi

Sanoq sistemalari ustida amallar

Ikkilik sanoq sistemasida amallar

қүшиш

$$0 + 0 = 0$$

$$0 + 1 = 1$$

$$1 + 0 = 1$$

$$1 + 1 = 10$$

айириш

$$0 - 0 = 0$$

$$1 - 0 = 1$$

$$1 - 1 = 0$$

$$10 - 1 = 1$$

күпайтириш

$$0 \cdot 0 = 0$$

$$1 \cdot 0 = 0$$

$$0 \cdot 1 = 0$$

$$1 \cdot 1 = 1$$


Sakkizlik sanoq sistemasida amallar

+ 0	0	1	2	3	4	5	6	7
0	0	1	2	3	4	5	6	7
1	1	2	3	4	5	6	7	10
2	2	3	4	5	6	7	10	11
3	3	4	5	6	7	10	11	12
4	4	5	6	7	10	11	12	13
5	5	6	7	10	11	12	13	14
6	6	7	10	11	12	13	14	15
7	7	10	11	12	13	14	15	16

X 0	0	1	2	3	4	5	6	7
0	0	0	0	0	0	0	0	0
1	0	1	2	3	4	5	6	7
2	0	2	4	6	10	12	14	16
3	0	3	6	11	14	17	22	25
4	0	4	10	14	20	24	30	34
5	0	5	12	17	24	31	36	43
6	0	6	14	22	30	36	44	52
7	0	7	16	25	34	43	52	61

Misollar

1- Misol: O'nlik sanoq sistemasida berilgan 987,125 sonni ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazing.



$$(0,125)_{10} = (0,001)_2$$

$$(987,125)_{10} = (1111011011,001)_2$$

Misollar

2 - Misol: Ikkilik sanoq sistemasida berilgan $1111011011,001$ sonini o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazing.



9 8 7 6 5 4 3 2 1 0 -1 -2 -3

$$\begin{aligned}(1111011011,001)_2 &= 1 \cdot 2^9 + 1 \cdot 2^8 + 1 \cdot 2^7 + 1 \cdot 2^6 + 0 \cdot 2^5 + \\&\quad 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^3 + 0 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 + 0 \cdot 2^{-1} + 0 \cdot 2^{-2} + 1 \cdot 2^{-3} = \\&= 512 + 256 + 128 + 64 + 0 + 16 + 8 + 0 + 2 + 1 + 0 + 0 + 0,125 = \\&= 987,125\end{aligned}$$

$$(1111011011,001)_2 = (987,125)_{10}$$

Misollar

3 - Misol: O'nlik sanoq sistemasida berilgan 987,125 sonini sakkizlik sanoq sistemasiga o'tkazing.



$$(0,125)_{10} = (0,1)_8$$

$$(987,125)_{10} = (1733,1)_8$$

4 - Misol: Sakkizlik sanoq sistemasida berilgan 1733,1 sonini o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazing.

$$\begin{array}{r} 3 \ 2 \ 1 \ 0 \ -1 \\ (1 \ 7 \ 3 \ 3 , 1)_8 = 1 \cdot 8^3 + 7 \cdot 8^2 + 3 \cdot 8^1 + 3 \cdot 8^0 + 1 \cdot 8^{-1} = \\ = 512 + 448 + 24 + 3 + 0,125 = 987,125 \end{array}$$

$$(1733,1)_8 = (987,125)$$

Misollar

5 - Misol: $1001,1_{(2)} + 1101,101_{(2)}$ amalini bajaring.

$$\begin{array}{r} 1 \ 0 \ 0 \ 1 , \ 1 \ 0 \ 0 \\ + 1 \ 1 \ 0 \ 1 , \ 1 \ 0 \ 1 \\ \hline 1 \ 0 \ 1 \ 1 \ 1 , \ 0 \ 0 \ 1 \end{array}$$

$$1001,1_{(2)} + 1101,101_{(2)} = 10111,001_{(2)}$$

6 - Misol: $1101,11_{(2)} - 101,101_{(2)}$ amalini bajaring.

$$\begin{array}{r} 1 \ 1 \ 0 \ 1 , \ 1 \ 1 \ 0 \\ - 1 \ 0 \ 1 , \ 1 \ 0 \ 1 \\ \hline 1 \ 0 \ 0 \ 0 , \ 0 \ 0 \ 1 \end{array}$$

$$1101,11_{(2)} - 101,101_{(2)} = 1000,001_{(2)}$$

Misollar

7 - Misol: $1101,11_{(2)} \times 101_{(2)}$ amalini bajaring.

$$\begin{array}{r} 1 & 1 & 0 & 1 & , & 1 & 1 \\ \times & 1 & 0 & 1 \\ \hline & 1 & 1 & 0 & 1 & 1 & 1 \\ + & 1 & 1 & 0 & 1 & 1 & 1 \\ \hline 1 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & , & 1 & 1 \end{array}$$

$$1101,11_{(2)} \times 101_{(2)} = 1000100,11_{(2)}$$

8 - Misol: $10001,01_{(2)} : 101_{(2)}$ amalini bajaring.

Misollar

1	0	0	0	1,	0	1	1	0	1			
-	1	0	1				1	1,	0	1	1	
-	1	1	1	1								
	1	0	1									
	-	1	0	0								
		0	0	0								
	-	1	0	0	1							
		1	0	1								
		-	1	0	0	0						
			1	0	1							
			-	1	0	0	0					
				1	0	1						
					1	1						

$$10001,01_{(2)} : 101_{(2)} = 11,011_{(2)}$$

Misollar

9 - Misol: $5401,36_{(8)} + 457,53_{(8)}$ amalini bajaring.

$$\begin{array}{r} 5 \ 4 \ 0 \ 1 , \ 3 \ 6 \\ + \ 4 \ 5 \ 7 , \ 5 \ 3 \\ \hline 6 \ 0 \ 6 \ 1 , \ 1 \ 1 \end{array}$$

$$5401,36_{(8)} + 457,53_{(8)} = 6061,11_{(8)}$$

10 - Misol: $6061,11_{(8)} - 457,53_{(8)}$ amalini bajaring.

$$\begin{array}{r} 6 \ 0 \ 6 \ 1 , \ 1 \ 1 \\ - \ 4 \ 5 \ 7 , \ 5 \ 3 \\ \hline 5 \ 4 \ 0 \ 1 , \ 3 \ 6 \end{array}$$

$$6061,11_{(8)} - 457,53_{(8)} = 5401,36_{(8)}$$

Misollar

11 - Misol: $4506,57_{(8)} \times 56_{(8)}$ amalini bajaring.

$$\begin{array}{r} 4 & 5 & 0 & 6 & , & 5 & 7 \\ \times & & 5 & 6 \\ \hline 3 & 3 & 6 & 5 & 0 & 3 & 2 \\ + 2 & 7 & 1 & 4 & 1 & 5 & 3 \\ \hline 3 & 2 & 5 & 2 & 6 & 5,6 & 2 \end{array}$$

$$4506,57_{(8)} \times 56_{(8)} = 325265,62_{(8)}$$

12 - Misol: $325265,62_{(8)} : 56_{(8)}$ amalini bajaring.

Misollar

	3	2	5	2	6	5,	6	2	5	6				
-	2	7	0						4	5	0	6,	5	7
		3	5	2										
-	3	4	6											
			4	6	5									
		-	4	2	4									
				4	1	6								
			-	3	4	6								
					5	0	2							
				-	5	0	2							
							0							

$$325265,62_{(8)} : 56_{(8)} = 4506,57$$

Mavzuni mustahkamlash uhun topshiriqlar:

1. “Axborot” terminiga sinkveyn tuzing.
2. “Sanoq sistemalari” mavzusini ifodalovchi “Klaster” tuzing.
3. $53,4_{(8)} = ()_{(10)} = ?$
4. Bugungi ma’ruza mavzusiga oid Klaster tuzing.

“Sinkveyn” metodi

Metodning maqsadi: “**Sinkveyn**” so’zi frantsuzcha so’zdan olingan bo’lib, “besh misradan iborat she’r” tarjimasini beradi. Amaliyotda “**Sinkveyn**” tayanch nisbiy tushunchalar va axborotlarni umumlash-tirishda tezkor vosita hisoblanadi.

“**Sinkveyn**” tuzish qoidasi quyidagicha:

1. ot turkumidagi oid so’z bilan;
2. sifat turkimiga oid ikki so’z bilan;
3. ushbu mavzu bo`yicha hatti-xarakatlar uch so’z bilan tasvirlanadi;
4. mavzuga aloqadorlikni ko`rsatuvchi to’rtta so’zdan iborat gap yoziladi;
5. mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so’zdan iborat sinonim shakllantiriladi.

► **Namuna:** Kompyuter so’ziga tuzilgan “**Sinkveyn**”

1. Kom’pyuter
2. Sifatli, tezkor
3. To’playdi, saqlaydi, uzatadi
4. Zamonaviy axborot texnologiya vositasi
5. Intelekt.

Savol va topshiriqlar

1. Axborot nima?
2. Sanoq sistemalari turini sanab bering.
3. Ikkilik sanoq sistemasida qo'shish qonuni qanaqa bo'ladi?
4. Bir sanoq sistemasidan boshqa sanoq sistemasiga otish qoidalari qanaqa?

E'tiboringiz uchun rahmat!



**Raxmankulova Barna
Oktamxanovna**

**«Axborot texnologiyalari»
kafedrasи dotsenti**

+ 998 909747425

E-mail: dilnoza9866@mail.ru

